

**BANK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR
TAJIRIBASINI QO'LLASH YO'LLARI****Normatova Fotima Obiz qizi**

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi Xalqaro bank ishi fakulteti Iqtisodiyotni monetar tartibga solish yunalishi IMTS-24-28 guruhi tinglovchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17248403>

Annotatsiya. Mazkur maqolada bank tizimini takomillashtirish jarayonida ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini o'rganish va ularni milliy amaliyotda qo'llash imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Dunyodagi yetakchi mamlakatlarning bank tizimida qo'llanilayotgan innovatsion yondashuvlar, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlari hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish tajribalari qiyosiy tahlil qilinib, O'zbekiston bank tizimini isloh qilish uchun dolzarb jihatlar ajratib ko'rsatiladi

Kalit so'zlar: bank tizimi, islohotlar, xorijiy tajriba, moliyaviy barqarorlik, raqamli texnologiyalar, bank xizmatlari sifati, risklarni boshqarish, moliyaviy inklyuziya, modernizatsiya.

Аннотация. В данной статье анализируется процесс совершенствования банковской системы посредством изучения опыта передовых зарубежных стран и возможностей его применения в национальной практике. Сравнительно анализируются инновационные подходы, используемые в банковских системах ведущих государств, механизмы обеспечения финансовой стабильности, а также опыт внедрения цифровых технологий, при этом выделяются актуальные аспекты для реформирования банковской системы Узбекистана.

Ключевые слова: банковская система, реформы, зарубежный опыт, финансовая стабильность, цифровые технологии, качество банковских услуг, управление рисками, финансовая инклюзия, модернизация.

Abstract. This article analyzes the process of improving the banking system through the study of the experience of advanced foreign countries and the possibilities of applying it in national practice. A comparative analysis is carried out of the innovative approaches used in the banking systems of leading countries, the mechanisms for ensuring financial stability, and the experience of introducing digital technologies, while highlighting relevant aspects for reforming the banking system of Uzbekistan.

Keywords: banking system, reforms, foreign experience, financial stability, digital technologies, quality of banking services, risk management, financial inclusion, modernization.

Kirish

So'nggi yillarda mamlakatimizda bank-moliya tizimini isloh qilish, moliyaviy xizmatlar bozorini rivojlantirish va aholining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Banklar nafaqat iqtisodiyotning barqaror faoliyatini ta'minlaydigan muhim moliyaviy institut sifatida, balki real sektor korxonalarini kreditlash, investitsiyalarni jalb qilish va aholiga sifatli xizmatlar ko'rsatish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda bevosita ishtirok etmoqda.

Hozirgi davrda rivojlangan mamlakatlarda bank tizimi faoliyatini tartibga solish, risklarni boshqarish, korporativ boshqaruv tamoyillarini joriy etish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirish borasida sezilarli natijalarga erishilgan.

Masalan, Yevropa Ittifoqi davlatlarida bank nazorati va tartibga solishning yagona mexanizmlari ishlab chiqilgan bo'lsa, AQShda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida kapital yetarliligi va likvidlik standartlari qat'iy nazorat qilinmoqda. Yaponiya va Janubiy Koreya singari Osiyo davlatlarida esa raqamli bank xizmatlarini kengaytirish va innovatsion mahsulotlarni rivojlantirish orqali banklarning raqobatbardoshligini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Mazkur maqolada tijorat banklari faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari, ularning rivojlanish tendensiyalari, mavjud muammolari va yechimlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shu bilan birga, xalqaro tajribalar asosida milliy bank tizimining samaradorligini oshirish imkoniyatlari ham yoritib beriladi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari

Maqolaning asosiy maqsadi ilg'or xorijiy davlatlarning bank tizimini rivojlantirishdagi tajribasini o'rganish va ularni O'zbekiston milliy bank tizimini takomillashtirish jarayonida qo'llash imkoniyatlarini aniqlash.

Vazifalar:

- xorijiy mamlakatlarda bank tizimini isloh qilish jarayonlarini tahlil qilish;
- moliyaviy barqarorlikni ta'minlash hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ilg'or yondashuvlarni o'rganish;
- O'zbekiston bank tizimi rivojlanishida xorijiy tajribaning qo'llanishiga oid imkoniyat va cheklavlarni aniqlash;
- milliy bank tizimini modernizatsiya qilish uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, xorijiy tajribani o'rganish asosida O'zbekiston bank tizimini yanada samarali rivojlantirish, mavjud muammolarni hal etish va xalqaro moliya bozorida barqaror o'rin egallash uchun ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqish imkoniyati yuzaga keladi. Shu nuqtayi nazardan, maqolada ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini tahlil qilish va uni milliy bank tizimini takomillashtirish jarayonida qo'llashning asosiy yo'nalishlari yoritib beriladi.

Adabiyotlar sharhi va nazariy asoslar

Bank tizimi va uning iqtisodiyotdagi o'rni masalasi bo'yicha ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, J. M. Keynes, I. Fisher, M. Fridman kabi g'arbiy iqtisodchilar pul-kredit siyosati, banklarning makroiqtisodiy barqarorlikka ta'siri, kredit portfelini shakllantirish va boshqarishning nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar. Ularning asarlarida bank faoliyatining iqtisodiy o'sishga ta'siri, moliyaviy vositachilikning samaradorligi va inflyatsiyani jilovlashda pul-kredit mexanizmlarining o'rni keng yoritilgan.

O'zbekistonlik olimlardan A. Vahobov, Sh. Mustafoqulov, X. Abdukarimov va boshqa tadqiqotchilar milliy bank tizimi rivoji, banklarning moliyaviy barqarorligi, kredit siyosati va risklarni boshqarish masalalarini chuqur o'rganganlar. Ularning ilmiy ishlari tijorat banklari faoliyatining samaradorligini baholash, aktiv va passivlarni boshqarish, kreditlash jarayonida yuzaga keladigan muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llarini nazariy jihatdan asoslab bergan.

Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, tijorat banklarining samarali faoliyat yuritishi uchun mustahkam nazariy asoslar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, amaliyotda hali ham yechimini kutayotgan muammolar mavjud.

Xususan, kredit portfelining sifatini oshirish, risklarni kamaytirish, bank xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni ta'minlash va xalqaro moliya tizimiga integratsiyalash jarayonlari ilmiy izlanishlarni davom ettirishni talab qiladi.

Xalqaro tajribada qo'llaniladigan asosiy model va tamoyillar

Bank tizimini takomillashtirishda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalanish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiluvchi eng muhim omillardan biridir. Jahon moliya tizimida rivojlangan mamlakatlar bank sektorini tashkil etishda turli model va yondashuvlardan foydalanadilar. Mazkur modellar banklarning faoliyat doirasi, risklarni boshqarish tizimi hamda davlat nazorati darajasiga qarab farqlanadi.

1. Universal bank modeli (Germaniya tajribasi)

– Bu modelda tijorat banklari bir vaqtning o'zida korporativ va chakana mijozlarga xizmat ko'rsatish, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish, qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshirish huquqiga ega bo'ladi.

– Afzalligi: banklar diversifikatsiyalashgan xizmatlar ko'rsatishi natijasida risklarni kamaytiradi.

– O'zbekiston uchun ahamiyati: bank xizmatlarini kengaytirish, xususan, investitsiya va moliyaviy maslahatchilik faoliyatini rivojlantirish orqali raqobatni oshirish mumkin.

2. Ixtisoslashgan bank modeli (AQSH tajribasi)

– Bu modelda tijorat banklari, investitsion banklar, ipoteka banklari, jamg'arma institutlari alohida faoliyat yuritadi.

– Afzalligi: yuqori malakali mutaxassislar bilan tor yo'nalishda samarali xizmat ko'rsatish, moliyaviy shaffoflikni ta'minlash.

– O'zbekiston uchun ahamiyati: ayrim yo'nalishlarda (masalan, ipoteka, kichik biznes kreditlari, agrobank tizimi) ixtisoslashgan xizmatlarni kuchaytirish orqali sifatni oshirish mumkin.

3. Davlat va xususiy sektor hamkorligiga asoslangan model (Janubiy Koreya tajribasi)

– Bank sektorini isloh qilishda davlat dastlab strategik investitsiya va kafolatlar beradi, keyinchalik xususiy sektorni jalb qiladi.

– Afzalligi: barqarorlikni saqlagan holda bozor mexanizmlarini joriy etish.

– O'zbekiston uchun ahamiyati: davlat ulushiga ega banklarni bosqichma-bosqich xususiylashtirish jarayonida barqarorlikni ta'minlash.

4. Innovatsion va raqamli bank modeli (Singapur, Buyuk Britaniya tajribasi)

– Fintech, mobil banking, onlayn kreditlash, sun'iy intellekt asosidagi risk-menejment kabi texnologiyalarni keng joriy etish.

– Afzalligi: xarajatlarni kamaytirish, mijozlarga tezkor xizmat ko'rsatish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish.

– O'zbekiston uchun ahamiyati: "raqamli bank" infratuzilmasini rivojlantirish orqali aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

5. Risklarni boshqarish va kapitallashuv standartlari (Basel tavsiyalari)

– Basel I, II, III standartlari bank kapitalining yetarililigini ta'minlash, kredit va likvidlik risklarini nazorat qilish uchun joriy qilingan xalqaro me'yorlardir.

– O'zbekiston uchun ahamiyati: banklar barqarorligini mustahkamlash va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF), Bank for International Settlements (BIS) hisobotlarida rivojlangan mamlakatlar bank tizimi islohotlari va ularning samaradorligi keng yoritilgan.

Germaniya, Janubiy Koreya, Singapur, AQSH bank sektorini rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy maqolalar, monografiyalar, shuningdek O'zbekiston Markaziy bankining yillik hisobotlari xalqaro tajribani qiyosiy tahlil qilishga yordam beradi.

O'zbekiston Prezidentining 2020–2025 yillarda bank tizimini isloh qilish bo'yicha qarorlari xorijiy tajribaning milliy sharoitga moslashuvini ta'minlashni ko'zda tutadi.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotning metodologik asosi bank tizimini takomillashtirish bo'yicha nazariy yondashuvlar, ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasi va O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar tahliliga tayangan. Tadqiqotda quyidagi usullar qo'llaniladi:

Qiyosiy tahlil metodi – O'zbekiston bank tizimining asosiy ko'rsatkichlari Germaniya, Janubiy Koreya, AQSH, Singapur kabi ilg'or mamlakatlar bank sektoridagi ko'rsatkichlar bilan solishtirildi. Bu usul milliy tizimning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi.

Statistik tahlil va dinamik qatorlar – Markaziy bank, Jahon banki va boshqa xalqaro moliya institutlari ma'lumotlari asosida bank aktivlari, kredit portfeli, kapitallashuv darajasi va moliyaviy xizmatlar qamrovi kabi ko'rsatkichlar tahlil qilinadi.

SWOT tahlil – xorijiy tajribani O'zbekiston sharoitiga tatbiq etishning kuchli, zaif, imkoniyat va tahdid tomonlari baholanadi.

Normativ-huquqiy tahlil – O'zbekiston Respublikasi Prezident qarorlari, Markaziy bank me'yoriy hujjatlari hamda xalqaro standartlar (Basel talablariga oid) o'rganiladi.

Mazkur metodlar yordamida xorijiy tajribaning qaysi elementlari O'zbekiston bank tizimi uchun mos ekanligi aniqlanib, maqolaning xulosa va tavsiyalar qismi shakllantiriladi.

Asosiy qism (Tahlil).

Bank tizimini takomillashtirish yo'lida ilg'or mamlakatlar tajribasini o'rganish O'zbekiston uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Germaniya, Janubiy Koreya, AQSH, Singapur kabi mamlakatlar bank sektorining rivojlanishida quyidagi yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratadi: bank xizmatlarini diversifikatsiyalash, kapitalni yetarli darajada shakllantirish, risk-menejment mexanizmlarini kuchaytirish va raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish.

-Germaniya tajribasi: universal bank tizimi.

Germaniyada universal bank modeli keng qo'llanadi. Tijorat banklari bir vaqtning o'zida chakana xizmatlar, korporativ kreditlash, investitsiya faoliyati hamda qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalarni amalga oshiradi. Bu model banklarning diversifikatsiyalashgan faoliyat yuritishi, risklarni pasaytirishi hamda barqaror daromad manbalarini yaratishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston uchun saboq: davlat ulushiga ega banklarni bosqichma-bosqich xususiyashtirish bilan bir qatorda universal xizmatlarni kengaytirish mumkin.

-AQSH tajribasi: ixtisoslashgan banklar modeli.

AQSHda tijorat banklari, investitsiya banklari, ipoteka banklari va jamg'arma institutlari alohida faoliyat yuritadi. Bu model banklarning tor yo'nalishda chuqur ixtisoslashuviga va moliyaviy shaffoflikni ta'minlashga imkon beradi.

O'zbekiston uchun saboq: ipoteka, kichik biznes kreditlari yoki agrobank yo'nalishlarida ixtisoslashuvni kuchaytirish xizmat sifati va moliyaviy inklyuziyani oshiradi.

-Janubiy Koreya tajribasi: davlat-xususiy sektor hamkorligi.

Janubiy Koreyada dastlab davlat bank sektoriga katta sarmoya kiritib, tizimni mustahkamladi, keyinchalik xususiy sektorni jalb etish orqali raqobatni oshirdi. Bu jarayon bank sektorida barqarorlikni ta'minlash bilan birga bozor mexanizmlarini joriy etishga xizmat qildi.

O'zbekiston uchun saboq: davlat ulushiga ega banklarni xususiylashtirish jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirish, xususiy kapitalni jalb etishda imtiyozlar berish mumkin.

-Singapur va Buyuk Britaniya tajribasi: innovatsion va raqamli bank modeli.

Singapur va Buyuk Britaniyada fintech startaplari, mobil banking, sun'iy intellekt asosidagi risk-menejment tizimlari keng joriy qilingan. Raqamli texnologiyalar nafaqat xarajatlarni kamaytiradi, balki aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O'zbekiston uchun saboq: "Raqamli bank" infratuzilmasini rivojlantirish, fintech kompaniyalar bilan hamkorlik qilish va mobil ilovalarni takomillashtirish orqali mijozlarga tezkor xizmat ko'rsatishni kengaytirish mumkin.

-O'zbekiston bank tizimi islohotlari bilan qiyosiy tahlil.

So'nggi yillarda O'zbekistonda bank tizimini isloh qilish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda: davlat ulushini kamaytirish, xususiy banklar sonini oshirish, banklarni xalqaro reytinglarga chiqarish, elektron va mobil bankingni rivojlantirish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish.

Bu islohotlar xorijiy tajribalarga uyg'un holda olib borilayotganini ko'rsatadi. Kelgusida esa risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish, xalqaro standartlarga moslashtirish hamda bank xizmatlarini diversifikatsiyalash orqali yanada samarali tizim yaratish mumkin.

Yuqoridagi tahlildan ko'rinadiki, O'zbekiston bank tizimida Germaniya, AQSH, Janubiy Koreya, Singapur tajribalaridan olingan asosiy tamoyillarni bosqichma-bosqich joriy etish moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish, raqobatni kuchaytirish va iqtisodiy barqarorlikka erishishga yordam beradi.

Xulosa va tavsiyalar

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston bank tizimini rivojlantirishda ilg'or xorijiy tajribalar asosida olib borilayotgan islohotlar iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va moliyaviy xizmatlar sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Germaniya, AQSH, Janubiy Koreya va Singapur tajribalarining qiyosiy tahlili shuni anglatadiki, universal va ixtisoslashgan bank modellarining moslashtirilgan shakllarini qo'llash, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda davlat-xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish O'zbekiston sharoitida ham ijobiy samara berishi mumkin.

Bundan tashqari, bank kapitalining yetarliligini oshirish, risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish kelgusida milliy bank tizimining xalqaro reytinglardagi mavqeini mustahkamlashga yordam beradi.

Tavsiyalar

1. Universal va ixtisoslashgan xizmatlarni uyg'unlashtirish – yirik banklarda universal model elementlarini kengaytirish, kichik va o'rta banklarda esa ixtisoslashgan yo'nalishlarni kuchaytirish orqali xizmatlar sifatini oshirish.

2. Davlat ulushi bo'lgan banklarni bosqichma-bosqich xususiylashtirish – bu jarayonda xususiy kapitalni jalb qilish, shaffoflik va xalqaro standartlarga mos korporativ boshqaruvni yo'lga qo'yish.

3. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish – “raqamli bank” infratuzilmasini rivojlantirish, fintech kompaniyalar bilan hamkorlik qilish va mobil ilovalar orqali masofaviy xizmatlarni takomillashtirish.

4. Basel standartlari va xalqaro normalarni bosqichma-bosqich tatbiq etish – risklarni baholash tizimini kuchaytirish, kapitallashuv darajasini oshirish va bank nazoratining mustahkamligini ta'minlash.

5. Moliyaviy savodxonlikni oshirish – aholining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va ularni to'g'ri tushuntirish bo'yicha dasturlar ishlab chiqish.

6. Innovatsion moliyaviy mahsulotlarni joriy etish – “yashil kreditlar”, “islomiy moliya” yoki startaplarni qo'llab-quvvatlovchi maxsus kredit liniyalarini yo'lga qo'yish orqali raqobatni kuchaytirish.

7. Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kengaytirish – kredit liniyalari, grantlar va texnik yordam loyihalari orqali bank tizimida ilg'or boshqaruv va texnologiyalarni tatbiq etish.

Mazkur xulosa va tavsiyalar O'zbekiston bank tizimini rivojlantirish jarayonida xalqaro tajribani chuqur o'rganish va uni milliy sharoitga moslashtirishga xizmat qiladi. Natijada banklar barqarorligi, moliyaviy xizmatlar sifati va mijozlar ishonchi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Nazariy va xalqaro adabiyotlar

1. LEE, C ' *Bank Sector Reforms in South Korea* '-Asian Economic papers, 2021.
2. Singh, R. "Fintech and digital banking transformation: Lessons from Singapore"- Journal of Financial innovation-2023.
3. Mishkin F.S. *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. 11th ed. Pearson, 2021.
4. Klein, M. Wendel R . "Universal banking and its Economic Implications"- European Economic Review.-2022.
5. The World bank. " *Global Financial development report*"-2025 .
6. International Monetary Fund(IMF)- "Financial Stability and Banking Sector Reforms" (maqolalar to'plami).
7. European Central Bank. *Monetary Policy Report*, 2022.
8. Federal Reserve. *Monetary Policy Framework Review*, 2021.
9. Bank of Japan. *Outlook for Economic Activity and Prices*, 2022.
10. O'zbek adabiyotlari va mahalliy manbalar
11. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Pul-kredit siyosati sharhi*, 2023.
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. *Bank tizimini rivojlanishi bo'yicha yillik hisobotlar* '(2020-2024 yillar)
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bank tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2019.
14. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. *Bank tizimini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar*, 2022.
15. Abduqodirov A., Qudratov B. *Pul-kredit siyosati va moliya bozori*. Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.
16. Abdullayev Yo. *Bank tizimida islohotlar va rivojlanish istiqbollari*. Toshkent: Fan, 2019.

17. Mamatqulov X. *O'zbekiston bank tizimida chakana xizmatlar evolyutsiyasi*. Toshkent moliya instituti ilmiy jurnali, 2021.
18. Muqumov O.A. *Tijorat banklarida risklarni boshqarish masalalari*. "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali, 2023.
19. Saytlar va onlayn manbalar
20. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki rasmiy sayti — www.cbu.uz
21. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi — www.mf.uz
22. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi — www.stat.uz
23. Jahon banki O'zbekiston bo'yicha ma'lumotlar bazasi — data.worldbank.org/country/uzbekistan
24. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) O'zbekiston sharhlari — www.imf.org